

KNAUF-Flexendixtband Pro

Gidroizolyatsion tasma

Gidroizolyatsiya tizimi

01/2026



Qo'llanish sohasi

KNAUF-Flexendixtband Pro yupqa, chidamliligi yuqori, elastik poliestr tasma bo'lib, tasmaning bo'ylama o'qi bo'yicha suv otkazmas, eskirishga chidamli elastomer yopishtirilgan. KNAUF-Flexendixtband Pro tasmasi izolyatsiyalanuvchi narsalarning ishonchli mahkamlanishini ta'minlash uchun gidroizolyatsion tarkib bilan birgalikda qo'llaniladi zo'riqish konsentratsiyalangan va yorilish ehtimoli bo'lgan joylar yuzasi:

- ichki va tashqi burchaklarda;
- devor/devor va devor/pol birikkan joylarda;
- asos yuzasining choklari va tutashgan joylarida.

Dushxonalar, sanuzellar va boshqa joylarda ichki ishlarda qo'llaniladi.

Xususiyatlari

- Kengligi, mm: 120;
- Izolyatsion qoplamaning kengligi, mm: 70;
- Qalinligi, mm: ~ 0,65;
- Vazni, g/m: ~ 34;
- Ishchi harorat, °C: -50 + 100;
- Quyidagi bosimga bardosh beradi, atm.: 4,0;
- Uzilgunicha ko'ndalang tortilishi, %: 128;
- Bo'ylama tortilishi 50% deformatsiyada, N/mm: 0,8;
- KNAUF-Flexendixtband quyidagilarning 7 kunlik ta'siridan so'ng o'z xususiyatini saqlab qoladi:
 - dengiz suvi (20 g/l);
 - oltingugurt kislotasi (35%);
 - kaliy ishqori (30 g/l);
 - xlorid kislotasi (3%);
 - limon kislotasi (100 g/l);
 - sut kislotasi (5%).
- Ultrabinafsha nurlanishga chidamli.

Manzil:

Toshkent sh, Shaxrisabz q, 2, Tower 2, 5 qavat

Kontaktlar:

+998 78 150 11 59
+998 78 150 11 60
+998 78 150 11 61

Ish tartibi

1. Awalo valik yoki cho'tka bilan astar (gruntovka) qatlami surtiladi: suvga bardoshli asoslar uchun - KNAUF-Tifengrund astari (gruntovkasi); namlikni shimuvchi, g'ovakli asoslar uchun - suv bilan 1:4 nisbatda suyultirilgan KNAUF-Flexendixt gidroizolyatsion tarkibi. Astar (Gruntoevka) qatlami quritishga qo'yiladi.
2. Izolyatsiyalanadigan yuzaga KNAUF-Flexendixtning birinchi izolyatsiyalanuvchi qatlami hamda KNAUF tayyor tashqi va ichki burchaklari surtiladi. KNAUF-Flexendixtband Pro tasmadan kerakli uzunlikda kesib olinadi va chok (burchak) o'qi bo'ylab hali qurimagan gidroizolyatsiya qatlami ustiga ehtiyotkorlik bilan yopishtiriladi. Tasmani yopishtirishda buklanmaganligini kuzatib turish zarur. Tasma kesmalarini va gidroizolyatsion burchaklarni ulab yopishtirishda chetlari, taxminan, 5 sm dan ustma-ust yopishtirib boriladi. Tasma yuzasi shpatelda tekislanadi yoki valik yurgiziladi. Suv quvurlari va poldagi suv ketadigan joylarni xuddi yuqoridagi kabi KNAUF gidroizolyatsion manjetalari bilan izolyatsiyalash lozim. Manjetalar quvurlarga kiygiziladi va endi surtilgan gidroizolyatsiya qatlamiga yopishtiriladi.
3. Birinchi izolyatsiyalovchi qatlam qurigandan so'ng butun yuza bo'ylab ikkinchisi surtiladi, zarur bo'lganda esa (qo'llash bo'yicha tavsiyalarga muvofiq) uchinchi marta KNAUF-Flexendixt qatlami surtiladi. O'q bo'ylab tasma eni 2-3 sm, chokning elastikligi ko'proq bo'lishi uchun gidroizolyatsion tarkib bilan qoplash tavsiya etilmaydi.

Qadoqlash va saqlash

10 m li o'ramda. Xona haroratida saqlanadi.

KNAUF material va konstruksiyalarning asosiy parametrlariga ta'sir qilmaydigan o'zgarishlarni kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Barcha texnik xususiyatlar KNAUF firmasi tavsiya qilgan materiallardan foydalangan holatdagina ta'minlanadi. Materiallarni qo'llashga doir barcha ko'rsatmalar muayyan hisob-kitobga asoslangan bo'lib, ko'rsatilganidan farq qilgan holatda aniqlashtirilishi talab etiladi. Qo'shimcha maslahat uchun KNAUF texnik xizmatiga murojaat qiling.